“O‘zkimyosanoat” AJ va “O'zkimyoimpeks” MChJ xodimlari ISO 31000:2018 standarti bo‘yicha malaka oshirishdi


// 18.07.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-o-zkimyoimpeks-mchj-xodimlari-iso-31000



“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati va “O'zkimyoimpeks” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 22 nafar xodimi ISO 31000:2018 – “Xavflarni boshqarish” xalqaro standartini tizimga joriy etish bo‘yicha xalqaro “Cert International” Akademiyasi mutaxassislari tomonidan onlayn formatda o‘qitildi.

Mazkur malaka oshirish dasturi xodimlarni xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish ko‘nikmalari bilan ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu orqali tashkilotlarda xavflarni boshqarish tizimi joriy etilishiga zamin yaratdi.

ISO 31000:2018 standartini amaliyotga tatbiq etish orqali tashkilotlar xavf-xatarlarni tizimli ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa tashkilotning samaradorligi, barqarorligi va belgilab olingan maqsadlarga erishish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.



Shuningdek, mazkur standart qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash, tizimning barcha darajasida xavflar haqida xabardorlikni oshirish, hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini ham yaratadi.

“O‘zkimyosanoat” AJ va “O'zkimyoimpeks” MCHJ bu kabi xalqaro standartlarni joriy etish orqali ichki boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash, korporativ madaniyatni rivojlantirish hamda jahon talablariga mos faoliyat yuritishni maqsad qilgan.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati